

PEDAGOGNING ISH FAOLIYATIDA MOTIVATSION METODLARDAN FOYDALANISHI

Xo'jayeva Nozima Qadamboyevna
Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada motiv va motivaciya haqida tushuncha, motivlar klassifikatsiyasi, o'quv faoliyatida, til o'rganishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallashda o'quvchilarning motivlari haqida ma'lumotlar keltirildi.

Abstract: In this article, the concept of motive and motivation, the classification of motives, information about the motives of students in acquiring new knowledge and skills in educational activities, language learning.

Аннотация: В данной статье понятие мотива и мотивации, классификация мотивов, информация о мотивах учащихся в приобретении новых знаний и умений в учебной деятельности, изучении языка.

Kalit so'zlar: Motiv, motivaciya, iroda, qiziqish, ijtimoiy-siyosiy motivlar, o'quv motivatsiyasi, kongnitiv motivaciya, kreativ motivaciya, ichki motivaciya, sirtqi motivaciya.

Key words: Motive, motivation, the will, interest, socio-political motives, educational motivation, cognitive motivation, creative motivation, internal motivation, external motivation.

Ключевые слова: Мотив, мотивация, воля, интерес, общественно-политические мотивы, учебная мотивация, познавательная мотивация, творческая мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация.

Hozirgi kunda yangi tillarni o'rganish barcha yosh toifalari uchun qiziqarli bo'lishi bilan bir qatorda zaruriy faoliyatga aylangani hech kimga sir emas. Tilni yangi ko'nikmalarini o'rganishdagi qiyinchiliklarning psixologik sabablari shaxsning indivualligida, bir odamga mos tushgan metodika boshqa bir shaxs uchun tog'ri kelmasligi ham ma'lum. Lekin shunday bo'lsa ham bu jarayonda motiv va motivatsiya umumiy bo'lishi mumkin. Bu esa barcha uchun mos keluvchi metodikalarni yaratish imkoniyatini beradi.

Eng keng tarqalgan tariflarga ko'ra, **motiv** - bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha tarif beriladi: **A.Maslouning** fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir. **S.L.Rubinshteynning** ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

Motivatsiya - murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bolib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi "Turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi". V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S.Merlin boyicha motivlari tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat.

Chet el psixologlari orasida **A.Maslou "Ehtiyojlar ierarxiyasi"** nazariyasi bilan mashhurdir. O'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini toliq namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bolishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o'rinni egallagan ehtiyojlar quyi o'rindagi ehtiyojlarga tobedir.

Jahon psixologiyasi fanining nazariy mushoxodalariga va o'zimizning shaxsiy ma'lumotlarimizga asoslanib faoliyat turlari moxiyatini o'zida aks ettiruvchi motivlar quyidagilar ekanligi ma'lum bo'ldi:

1. *Ijtimoiy-siyosiy voqe'liklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;*
2. *Kasbiy tayyorgarlik va mahoratini o'zida namoyon etuvchi motivlar;*
3. *O'qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.*

O'quv motivlari - bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yonaltirishdir. Masalan, o'quvchining motivi o'zi organayotgan tilga va til o'rganish jarayoniga qaratilgan bo'lsa, ularni *bilish motivlari* deb atash mumkin. Agar o'quv faoliyati o'quv jarayonida turli kishilar bilan tog'ri muloqot qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy motivlar namoyon boladi. Boshqacha qilib aytganda, ba'zan o'quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqot o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi.

A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlariga ajratgan.

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.
2. O'quvchining boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (social) motivlari.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki ijtimoiy motivlar ham tilni o'rganish jarayonida o'z o'rniga ega deyish ham mumkin. Bunda o'quvchi bilimlarini mustahkamlash, yangi narsa o'rganish va boshqa maqsadlarda boshqalar bilan muloqotda bo'lib, yangi bilimlarni egallashga harakat qiladi.

Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan. Psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u oqimasa, ko'ngilsizlik, noqulayliklar va noaniqliklarni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir.

Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi. Motivlarning yana bir xususiyati uning vujudga kelishi tezligi va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o'qituvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Shundan so'ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modallikka ega bo'lgan kongilsizlikdan qochish kabi beqaror motivlarga e'tibor berishimiz lozim.

Agar ijtimoiy motivlar ham ta'lim faoliyati uchun yetakchi hisoblansa, bir qator mualliflar (P.Ya.Galperin va boshqalar) ta'lim faoliyatiga nisbatan ularga tashqi motivlar sifatida qarashadi. **P.Ya.Galperin** fikricha, tashqi motivlar ta'lim jarayoni va predmetiga nisbatan amaliy munosabatda namoyon bo'ladi, bunda bilim keyingi faoliyat uchun tashqi shart-sharoit sifatida qaraladi va u ichki ta'limga bo'lgan barqaror qiziqish bilan bog'liqdir. Tashqi motivlar ichida aynan tashqi yoki utilitar motivlar (bunda harakatning shakllanishi, sub'ekt moyil bo'lgan faoliyatni amalga oshiradigan shart-sharoit hisoblanadi) va musobaqaviy motivlar ajratiladi, bunda subiekt: boshqalarga va o'z-o'ziga o'zining oldingi muvaffaqiyatlarini qiyoslagan holda muvaffaqiyatlarga intiladi.

Motivlarni ichki manbaiga qarab quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

1. Tashqi motivatsiyalar – bu motivatsiyaga ba'zi bir faoliyatning mazmuni bilan bog'liq emas, lekin inson uchun tashqi omillar bilan bog'liq bo'lgan motivlar kiradi. Masalan o'quvchi til o'rganishining asosiy sababi unga qiziqqanidan emas balki faqatgina o'qishga kirish uchun bo'lsa bu tashqi motivatsiya bo'ladi.

2. Ichki motivatsiya – bu xizmatning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan motivatsiya. Masalan o'quvchi qaysidir tilni o'rganish jarayonini qiyin deb bilsa ham ushbu tilga zo'r qiziqish bilan, bu tilni yaxshi ko'rganidan o'rgansa bu ichki motivatsiya bo'ladi.

Tilni o'rganuvchining motivatsiyasi ichki yoki tashqi ekanligini aniqlash uchun

T.D.Dubovickaya tamonidan tuzilgan, stimulyer material 20ta ta'kididan iborat bo'lgan “*O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish metodikasi*”dan foydalanish mumkin. Test-so'rovnoma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim

oluvchilarning barcha guruhlar bilan o'z-o'zini taxlil qilishga va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi inson bilan o'tkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G.G'oziev "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasi ,1-kitob.: Toshkent 2002;
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" .: Toshkent 2008.